INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GENDERGA XOS TIL BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI

Raxmatullayeva Madina Fatxullayevna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
XTA 23/1 4-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.21791646

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida genderga xos til birliklarining qiyosiy tahlili haqida o‘rganiladi. Tadqiqotda, har ikki tilde erkaklar va ayollarga xos nutq xususiyatlari, leksik va grammatik vositalar, murojaat shakllari hamda gender stereoplari aks etgan til birliklari o‘rganiladi.

КАЛИТ СЎЗЛАР

gender, qiyosiy tahlil, til birligi,

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of gender-specific linguistic units in the English and Uzbek languages. The study examines speech characteristics typical of men and women, lexical and grammatical means, forms of address, as well as linguistic units reflecting gender stereotypes in both languages.

KEY WORDS

gender, gender linguistics, comparative analysis, linguistic units, speech characteristics, lexical means, grammatical means, gender stereotypes.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ гендерно-специфических языковых единиц в английском и узбекском языках. В ходе исследования рассматриваются особенности речи, характерные для мужчин и женщин, лексические и грамматические средства, формы обращения, а также языковые единицы, отражающие гендерные стереотипы в обоих языках.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

гендер, гендерная лингвистика, сравнительный анализ, языковые единицы, речевые особенности, лексические средства, грамматические средства, гендерные стереотипы.

KIRISH

Til faqat grammatik tizim emas, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va psixologik tajribasini aks ettiruvchi murakkab kommunikativ mexanizmdir. Shu nuqtai nazardan, gender lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb va nisbatan yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Gender tushunchasi biologik jinsdan farqli ravishda, ijtimoiy va madaniy jihatdan, erkak va ayollarning ijtimoiy rollari, nutqiy xatti-harakatlari, fe’l-atvori hamda kommunikativ strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Gender va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ikkita turli xususiyatga ega bo‘lib, birinchidan, til jamiyatdagi gender stereotiplari va ijtimoiy rollarni aks ettiradi, ikkinchidan esa ularni mustahkamlash yoki transformatsiya qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. X.B. Samigova fikricha, gender termini erkak va ayollarga xos dunyoqarash, madaniyat va odob-axloqning ularning nutqi va tilidagi aksidir. Ya’ni, til tilshunoslik nazariyalarida genderga oid konsepsiyalarni yoritish uchun asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Asosiy qism: Ingliz va o‘zbek tillarida genderning lingvistik ifodasi turlicha shakllangan. Ingliz tilida zamonaviy til amaliyotida Mr./Mrs./Miss kabi unvonlar jinsni belgilaydi, Ms. esa neytral alternativ sifatida keng tarqalgan. Shuningdek, sir/ma’am kabi hurmat shakllar ham jinsga bog‘liq murojaatdir. Ayol va erkak kasb nomlariga misol sifatida ingliz tilida “actor”/“actress”, “waiter”/“waitress”, “policeman”/“policewoman” kabi juft shakllar mashhur; biroq ularga gender-neytral muqobillar (masalan, actor har ikki jinsga, firefighter police officer, server kabi) joriy qilinmoqda. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash tarzda murojaat shakllari jinsga ajratilgan. Masalan, o‘zbek tilida “janob/xonim” kabi chaqiruv shakllari mavjud,biroq bulardan, asosan, juda rasmiy uchrashuvlarda yoki badiiy adabiyotda foydalaniladi. Odatiy kunlarda, o‘zbeklar begona va katta yoshdagilarga murojaat qilishda “aka”, “opa”, “xola”, “otaxon”, “amaki” kabi so‘zlardan foydalanishadi. Kasb va unvon nomlarida ham jins farqi katta emas. Masalan, “o‘qituvchi”, “shifokor” so‘zi ayol yoki erkakka nisbatan alohida shaklga ega emas. Tilshunoslar fikricha, genderga oid xususiyatlar ko‘proq kontekst va sotsial vaziyatga bog‘liq bo‘lib, leksik birliklarga ta’sir o‘tkazadi.

Grammatik tomondan olib qaraganda, ingliz tilida jins shaxsiy olmoshlarda aniq namoyon bo‘ladi. Misol uchun, he/she uchinchi shaxs birlik olmoshlari aniq jins belgilaydi. So‘z yasashda esa “-ess”, “-ette” qo‘shimchalari ayolga xos shakl yaratadi (actor – actress, usher – usherette). . So‘nggi paytlarda bu stereotiplarga qarshi turish maqsadida gender-neytral so‘zlar ko‘plab ingliz tiliga kiritilmoqda (masalan “firefighter” o‘rniga “fireman”, “police officer” o‘rniga *“policeman”*). Shunday qilib, jamiyatdagi gender asosidagi tushunchalar va stereotiplar tilimizga ham chuqur singib, leksik va frazeologik birliklar hamda nutq odatlarimizni

shakllantiradi. Bundan tashqari, ingliz tilida ko‘pgina tarjimalarda erkak generik sifatida ishlatilgan (masalan, man “odam” ma’nosida). O‘zbek tilida esa morfologik jins umuman yo‘q. Otlar va fe’llar yosh yoki jinsdan qat’i nazar bir xil ko‘rinishda bo‘lib, gapning asosiy elementlariga (masalan, fe’l va sifat) jins moslashish qoidalari mavjud emas. Masalan, “yurdi”, “ketdi” kabi fe’llarga jins qo‘shimchasi ulanmaydi. Shuningdek, uchinchi shaxs “u” olmoshi erkak yoki ayol ekanidan qat’i nazar bir xil qo‘llanadi. Nutq madaniyati jihatidan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlar mavjud bo‘lib, bu haqida bir qancha g‘arb tadqiqotlarida yozilgan. Unga ko‘ra, ko‘pincha ayollarning nutqi muloyimroq, ko‘proq munosabatni saqlab qolishga yo‘naltirilgan deb ta’riflanadi, ya’ni ayollar ko‘proq “please”, “sorry” kabi yumshoq iboralar, savollar va so‘zlardan foydalanadi. Erkaklar esa bir xil ritmga asoslangan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot berishga moyil bo‘lib, ko‘proq qat’iyatli va topshiriqqa yo‘naltirilgan nutq yuritadi (masalan, buyruq usulida gapirish, bir ton baland ovozda so‘zlash). Qolaversa, ayollar suhbat davomida mavzuni oson o‘zgartira olish qobilyatiga ega bo‘lishsa, erkaklar esa ko‘pincha, bitta mavzu yuzasidan to‘liq suhbat olib borishadi. O‘zbek nutqida ham ushbu odatlar saqlanib qoladi. Masalan, o‘zbek ayollari ko‘proq, hissiyotli va ehtiyotkorona uslubda so‘zlaydi. Ularning suhbatlari savol va iltimoslar, hamdardlik, muloyim so‘zlar bilan boyitilgan (masalan uzr so‘rash, rahmat aytish, siz fe’lining ko‘p qo‘llanilishi). Ikkala tilda ham an’anaviy androsentrizm yaqqol ifodalanadi. Masalan, “man” so‘zi qadimiy inglizchada “odam, insoniyat” ma’nosida bo‘lib, ko‘p jihatdan ijobiy fazilatlarni o‘zida jamlagan; “woman” esa faqatgina ayolni bildiradi. Shu bois inglizcha matnlarda “mankind” (“insoniyat”) so‘zi butun insoniyat timsoli sifatida ishlatiladi.

Xulosa: Mavzuning dolzarbligi jamiyatdagi gender masalalarining hozirgi davrdagi ahamiyatiga bog‘liq. O‘zbek tilshunosligida, garchi gender lingvistikasini o‘rganishga e’tibor oshgani bilan genderga oid tadqiqotlar hali yetarli emas. Shu bois, ingliz va o‘zbek tillaridagi genderga oid til birliklarini taqqoslash biroz qiyinchilik tug‘diradi.Foreign Linguistics and Linguodidactics jurnalida bosib chiqarilgan maqolaga ko‘ra, ingliz tilida genderga oid nutq keng o‘rganilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida milliy an’ana va ijtimoiy rollar nutqga katta ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish genderning til orqali ifodalanish mexanizmlarini aniqlash, madaniyatlararo farqlarni tushunish hamda zamonaviy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari gender lingvistikasi, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Komilova, N. A. (2021). Comparative and linguocultural analysis of the concept “Gender” in Uzbek and English languages. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(6), 112–117.
2. Muhammedova, D. (2026). Comparative analysis of gender-related speech features in English and Uzbek languages. Foreign Linguistics and Linguodidactics, 3(11), 258–262.
3. Samigova, X. B. (2022). Gender lingvistikasi va uning zamonaviy yo‘nalishlari. Xorijiy filologiya, 4, 175–183.
4. Coates, J. (2015). Women, men and language: A sociolinguistic account of gender differences in language (3rd ed.). Routledge.
5. Egamberdieva S. (2025). Communicative and Pragmatic Features of Gender-Related Speech Units in English and Uzbek Languages. Foreign Linguistics and Linguodidactics, 3(11), 252-257